

**PAXTA SELEKSIYASI, URUG‘CHILIGI VA YETISHTIRISH
AGROTEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/30.12.2019.Qx.42.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**QORAQALPOG‘ISTON QISHLOQ XO‘JALIGI VA
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

TORENIYAZOV TILEUMURAT ELMURATOVICH

**QORAQALPOG‘ISTON SHAROITIDA DANAKLI MEVALARDA
SHIRALARNING (*APHIDIDAE*) RIVOJLANISH BIOEKOLOGIYASI VA
QARSHI KURASHNI ILMIY ASOSLASH**

06.01.09 – O‘simliklarni himoya qilish

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on agricultural sciences**

Toreniyazov Tileumurat Elmuratovich

Qoraqalpog‘iston sharoitida danakli mevalarda shiralarning (*Aphididae*) rivojlanish
bioekologiyasi va qarshi kurashni ilmiy asoslash 3

Торениязов Тилеумурат Елмуратович

Биоэкология развития тли (*Aphididae*) на плодовых косточковых и научно
обоснованные меры борьбы в условиях Каракалпакстана 21

Toreniyazov Tileumurat Elmuratovich

Bioecology of the development of aphids (*Aphididae*) in stone fruits in the
condition of Karakalpakstan and scientific substantiation for their control 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 43

**PAXTA SELEKSIYASI, URUG‘CHILIGI VA YETISHTIRISH
AGROTEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/30.12.2019.Qx.42.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**QORAQALPOG‘ISTON QISHLOQ XO‘JALIGI VA
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

TORENIYAZOV TILEUMURAT ELMURATOVICH

**QORAQALPOG‘ISTON SHAROITIDA DANAKLI MEVALARDA
SHIRALARNING (*APHIDIDAE*) RIVOJLANISH BIOEKOLOGIYASI VA
QARSHI KURASHNI ILMIY ASOSLASH**

06.01.09 – O‘simliklarni himoya qilish

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2023.1.PhD/Qx 1074 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.psuyaiti.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Utebergenov Adilbay Reyimbaevich,
qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, dotsent.

Rasmiy opponentlar:

Yusupov Abdusalim Xolboyevich,
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor.

Raxmonova Madina Kimsanboyevna,
qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

Yetakchi tashkilot:

O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi DSc.05/30.12.2019.Qx.42.01-raqamli Ilmiy kengashning 2024 «12» dekabr soat 9⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika m.f.y., O'zPITI ko'chasi. PSUEAITI. Tel.: (+99878) 150-62-84; faks: (+99871) 150-61-37; e-mail: paxtauz@mail.ru.

Dissertatsiya bilan Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (179 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika m.f.y., O'zPITI ko'chasi. PSUEAITI. Tel.: (+99878) 150-62-84; faks: (+99871) 150-61-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «21» 11 kuni tarqatildi.

(2024 yil «21» 11 dagi 1 raqamli reestr bayonnomasi)

 **SH.N.Nurmatov**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

 **F.M.Ilsanova**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, professor

 **J.H.Axmedov**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, biologiya fanlari doktori, professor



KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyo mamlakatlarida meva bog'laridan olinadigan mahsulotlar aholini ozuqa bilan ta'minlaydigan asosiy manba hisoblanib, bugungi kunda 39,5 mln gektar maydonda har xil meva bog'lari barpo etilgan bo'lsa, asosiy maydoni: Hindiston (10,7 mln ga), Xitoy (6,4 mln ga), Koreya (1,6 mln ga), Ispaniya (1,5 mln ga), Italiya (1,1 mln ga), Rossiya (0,84 mln ga), AQSH (0,65 mln ga) hamda Turkiya (0,17 mln ga) davlatlariga to'g'ri kelishi qayd etilgan¹. Ushbu davlatlarda urug'li va danakli meva bog'laridan olinadigan hosil me'yorlari tuproq va iqlim sharoitlariga, navlar va qo'llaniladigan agrotexnik tadbirlarga bog'liq bo'lishidan tashqari, zararli biotik omillar hisoblangan zararkunanda, kasallik va zararli begona o'tlardan himoya qilishga bog'liq bo'lib qolaveradi.

Dunyoda bog'dorchilik sohasini rivojlantirish bo'yicha yetakchi ilmiy-tadqiqot markazlari, tashkilotlar tomonidan olib borilayotgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, meva bog'laridan olinadigan hosil: tur va navlarni tanlashga, agrotexnik tadbirlarga hamda hudud agrobiotsenozi sharoitida tarqaladigan zararli omillarning asosiy turi hisoblangan zararkunandalarga qarshi kurash tadbirlarini ilmiy izlanishlar asosida tashkillashtirishga bog'liq bo'lishi taqozo etiladi. Tadbirni tavsiya etilgan muddat va me'yorida tashkillashtirish meva bog'lari turlaridan olinadigan mevaning sifati va tovarbopligini ta'minlashdagi asosiy omillardan ekanligi isbotlangan. Shu bois, dehqonchilikning mazkur turi sifatida meva bog'laridan olinadigan mahsulotlarni toliq pishgan va qayta ishlangan holida iste'mol qilishni to'la ta'minlash borasida ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyatga ega soha hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda mazkur sohani rivojlantirishda, viloyatlar agrobiotsenzolarida danakli meva daraxtlaridan o'rik (*Armeniaca vulgaris* Lam.), shaftoli (*Persica vulgaris* Mill.), olxo'ri (*Prunus domestica* L.), olcha (*Cerasus vulgaris* Mill.), chereshnya (*Prunus avium*) va gilos (*Cerasus avium* L.) kabi turlari ekib o'stirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»²gi Farmonlarida, mevali daraxtlarning mavjud va yangi turlarini ekib-ko'paytirish bo'yicha bir qancha muammolar mavjud bo'lib, hududlarning agroiklim sharoitlarini hisobga olgan holda bog'dorchilik sohasini isloh qilish, rivojlangan yangi innovatsion g'oyalarni, texnologiyani joriy qilish, zararkunandalar nobud qiladigan mahsulotlarni himoya qilishda ilmiy asoslangan kurash tadbirlarini ishlab chiqish va joriy qilish choralarini amalga oshirish bo'yicha aniq tadbirlar belgilab berilgan.

Hudud sharoitida mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-martdagi PF-5388-son «O'zbekiston Respublikasida meva-sabzavotchilikni jadal rivojlantirishga doir

¹<https://www.fao.org/3/ab985e/ab985e04.htm>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5853-sonli Farmoni

qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi va 2019-yil 14-martdagi PF-4239-son «Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo'jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarorlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Qoraqalpog'iston agroiklim sharoitida bajarish uchun mo'ljallangan mazkur dissertatsiya ishi Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarildi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyo miqyosida mavjud urug'li va danakli meva daraxtlari turlarida tarqalgan zararkunanda turlari, bioekologik rivojlanishi, dinamikasi, zarar keltirish mezonlari chuqur o'rganilib, qarshi kurash tadbirlarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan. Meva bog'lari turlariga bog'liq bo'lgan zararkunanda turlarining biotopga moslashishi, rivojlanish bioekologiyasiga bog'liq bo'lgan qarshi kurash tadbirlari bir qator xorijiy olimlar B.N.Beirne, J.Boubatrin, P.Huemer, H.N.Comins, G.Friese, CH.E.Taylor, N.Nane, J.Kokot, V.Voineac, A.S.Avetyan, V.P.Vasilev, I.V.Livshits, A.Danilevskiy va boshq. lar tomonidan olib borilib, nazariy va amaliy jihatdan samara beradigan keng qamrovli natijalar olingan, ishlab chiqarishga joriy etish uchun tavsiyalar berilgan.

Mazkur biotopda vujudga kelayotgan muammolarni ilmiy jihatdan asoslash uchun ilmiy tadqiqotlar olib borgan mahalliy olimlar V.Yaxontov, R.Olimjonov, B.Adashkevich, O'.Nabiev, A.Akbutaev, N.Pashenko, SH.Xo'jaev, B.Sulaymonov, T.Atamirzaeva, X.Mirzalieva, A.Sagdullaev, S.Mirzaeva, A.Xo'jaev, D.Obidjonov, A.Yusupov, X.Shukurov va boshq. ning tahlil natijalari asosida olma qurti, qalqondorlar, shiralar turlarining rivojlanish bioekologiyasi, dinamikasi o'rganilgan, zararni bartaraf etish uchun kimyoviy preparatlarni qo'llash ishlari bo'yicha ishlab chiqarish uchun kutilgan biologik, xo'jalik-iqtisodiy, ekologik samaradorlikni ta'minlaydigan tavsiyalar berilgan.

Qoraqalpog'iston Respublikasining danakli meva bog'larida zarar keltiradigan zararkunandalarning tur tarkibini aniqlash, ular orasida *Aphididae* oilasiga mansub shiralarning bioekologik rivojlanish xususiyatlari hamda ularga qarshi ilmiy asoslangan kurash choralarini belgilash bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari o'tkazilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutining «Qoraqalpog'iston agrobiotsenozi, qishloq xo'jaligi ekinlari turlarida uchraydigan zararkunandalarga qarshi atrof muhit uchun zararsiz kurash tadbirlarini ishlab chiqish» mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan (2021-2023 yy.).

Tadqiqotning maqsadi Qoraqalpog'iston Respublikasining shimoliy tumanlarida: o'rik, shaftoli, olxo'ri va gilos biotoplarida uchraydigan shira turlarini aniqlash, bioekologik rivojlanishi, dinamikasi, zarar keltirish mezonini belgilab

olib, agrotexnik, biologik va kimyoviy kurash usullari elementlarini ishlab chiqish va takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

mavjud va barpo etilgan danakli meva bog'larining o'sish-rivojlanishiga tashqi muhit omillarining ta'sirini aniqlash;

danakli meva bog'laridagi agrobiotsenozda shiralarning turlari, o'simlik-zararkunanda-entomofaglar o'rtasidagi biologik uzviylikni belgilash;

shiralarning tarqalish areallari, bioekologik rivojlanish xususiyatlari, dinamikasi va iqtisodiy zarar mezonini aniqlash;

shiralar sonini kamaytirishda ahamiyatli agrotexnik qarshi kurash tadbirlarini takomillashtirish;

shiralarning rivojiga tabiiy kushandalarning ahamiyatini aniqlab, sun'iy biologik usulni qo'llash tartib va mezonlarini ishlab chiqish;

dominant shira turlariga qarshi istiqbolli insektitsidlarni sinab reglamentlarini belgilash;

danakli meva bog'lari biotopida mavjud abiotik, biotik omillarni hisobga olgan holda shiralarga qarshi takomillashgan kurash usullarining biologik, xo'jalik va iqtisodiy samaradorligini aniqlash va ishlab chiqarishga tavsiyalar berish.

Tadqiqotning obykti sifatida Qoraqalpog'iston sharoitida ekilayotgan danakli meva daraxtlarining turlari, ularda uchraydigan shira turlari va entomofaglari olingan.

Tadqiqot predmeti danakli meva daraxtlarida uchraydigan shiralarga qarshi ishlatishga doir agrotexnik, biologik va kimyoviy kurash usullari va vositalarining samaradorligini aniqlash hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Qishloq xo'jalik entomologiyasi va qishloq xo'jalik ekinlarining entomofaunasini o'rganish uchun tan olingan usullar yordamida tadqiqotlar olib borildi. Meva bog'lari haqida O.N.Korovin, Q.Seyfullaev va boshq.; zararkunanda va entomofaglarni – G.Ya.Bey-Bienko, B.P.Adashkevich, K.S.Artoxin; shiralarning rivojlanish bioekologiyasi, dinamikasi – E.A.Pikushova, SH.T.Xo'jaev, M.A.Velodichev; iqtisodiy zarar mezoni – V.I.Tanskiy, V.T.Alexin uslublari yordamida aniqlandi. Shiralarga qarshi biologik usullarni ishlatish – X.R.Mirzalieva, X.Kimsanbaev va boshq., agrotoksikologik tadqiqotlar – SH.T.Xo'jaev, tadbirlarning biologik samaradorligi K.A.Gar (Abbot formulasi), xo'jalik va iqtisodiy samaradorligi N.R.Goncharov va boshq., A.F.Chenkin usullaridan foydalanilib bajarildi. Laboratoriya, dala va ishlab chiqarish tajribalari variantlarini joylashtirish, qaytariqlarni tanlash, olingan natijalarni matematik-statistik tahlil qilish B.A.Dospexov uslubi asosida bajarildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Qoraqalpog'iston Respublikasining ekstremal sharoitlarida mavjud danakli meva daraxtlari rivojiga biotik omillardan bo'lmish shira turlarining ta'siri, ularning asosiy turlari hamda rivoji uchun qulay keladigan abiotik omillar o'rganilgan;

danakli meva bog'larida uchraydigan shiralar turlarining rivojlanish bioekologiyasi, dinamikasi va zarar keltirish mezoni aniqlangan;

mazkur meva daraxtlaridagi o'rik-qamish shirasi onalik zoti 29,7 kun

davomida hayot kechirib, 67,3 donagacha tirik avlodlarini tugʻib, oʻrik barglarida oʻrtacha 3,8- 59,8 dona shiralar rivojlanganda mevalar vazni 2,4-11,8 grammga, shaftoli shirasi soni 16,2 kunda 30,2 dona tirik tugʻib, barglardagi soni 4,9-41,8 dona boʻlganda mevalar vazni 9,0-41,8 grammga kamayganligi hisobga olingan;

danakli meva daraxtlarida shiralarga qarshi agrotexnik, biologik va kimyoviy kurash usullarini oʻtkazishda maqbul muddat va usullar belgilanib, oʻrik-qamish shirasining oʻrik barglarida 18,0-21,2 donani, shaftolida esa shaftoli shirasi 11,8-14,3 donani tashkil qilganda biolaboratoriyada koʻpaytirilgan oltinkoʻz entomofagi gektariga 500-2000 (1:10-15 nisbatda) dona hisobida tarqatilganda biologik samaradorligi 76,8-82,5% ni tashkil qilganligi aniqlangan;

danakli meva daraxtlarida tarqalgan shiralarga qarshi biologik va kimyoviy usullarni qoʻllanilgandagi iqtisodiy samaradorligi gektaridan 6211,0 soʻmdan 47660,0 soʻmgacha tashkil etganligi isbotlangan;

yaratilgan qarshi kurash tizimi ishlab chiqarishga amaliy joriy etilib ijobiy natija olingan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Qoraqalpogʻiston sharoitida barpo etilgan danaklilarga mansub oʻrik turi 55,6 %, shaftoli – 21,4 %, olxoʻri – 13,7 %, gilos va olcha – 9,3% tashkil qilib, biotoplarning mikroiklimi shiralar uchun qulay abiotik sharoitlarni tashkil qilishi aniqlandi;

mazkur biotoplarda oʻrik-qamish shirasi, mart oyi ikkinchi oʻn kunligida qishlovdan chiqib, oʻrik barglarida 41,2-53,6 donagacha koʻpayib, onalik zoti 14-31 (oʻrtacha 22,5) kun hayot kechirib, 62,9-67,3 dona tirik avlodlarini tugʻib koʻpayib, oʻrikning barglarida oʻrtacha 3,8-9,5 dona rivojlanganda mevalar vaznini 2,4 grammga, 18,4-29,5 donasi 8,1 gr, 45,1-59,8 donasi 11,8 grammga kamaytirganligi aniqlandi;

shaftolida shaftoli shirasi qishlovdan aprel oyi birinchi oʻn kunligida chiqib, shiralar soni barglarda 28,7-46,3 donagacha koʻpayib, onalik zoti 10-22 (oʻrtacha 16,0) kun davomida 28,2-30,2 dona tirik avlodlarini tugʻib, barglardagi soni 2,3-4,9 dona boʻlganda mevalar vazni 9,0 gramm, 8,9-11,9 donasi 26,3 gramm, 16,4-20,3 donasi 41,8 grammga kamayganligi aniqlandi;

shira turlari qishlab chiqishi bilan biolaboratoriyada tayyorlangan oltinkoʻz entomofagi gektariga 500-2000 (1:10-15 nisbatda) dona tarqatilgan oʻrik dalalarida, oradan 30 kun oʻtgandagi biologik samaradorligi 72,1-84,3%; shaftolida 74,4-85,9% tashkil qilib, har bir daraxtdan qoʻshimcha 10,7-13,9 kg, 12,7-24,2 kg shaftoli hosili olinib, iqtisodiy samaradorlik har gektaridan 6211,0-18262,0 ming soʻmni tashkil qildi;

shiralarga qarshi ishlatilgan kimyoviy preparatlar: oʻrik-qamish va shaftoli shirasi sonini 79,9-88,8% dan 91,4-97,2% gacha kamaytirib, oʻrikning bir tup daraxtdan 17,9-22,1 kg, shaftolidan 19,4-24,3 kg qoʻshimcha hosil olinib, iqtisodiy samaradorlik gektaridan 18702,0-19596,0 va 45045,0-47660,0 ming soʻmni, rentabelligi esa 208-435% ni tashkil etdi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Laboratoriya va dala tajribalari mazkur tadqiqotlar uchun tavsiya etilgan usullar asosida oʻtkazilganligi; olingan natijalarga matematik-statistik ishlov berilganligi; tajriba natijalari maxsus tashkil

etilgan komissiya tomonidan aprobatsiya qilinib, ijobiy baholanganligi va ilmiy hisobotlarning Ilmiy kengashlarda muhokamadan o'tkazilganligi; tadqiqot natijalarining ijobiyligi, xulosalarning ilmiy asoslanganligi, olingan natijalar respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilib, ilmiy nashrlarda chop etilganligi hamda ishlab chiqarishga tavsiyalar berilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Qoraqalpog'iston agroiklimi va tuprog'iga xos sharoitlarda mevali daraxtlarning qaysilari ekilishi va ularga xos agrotexnik choralarining ixtisoslanishi aniqlanganligi, ushbu daraxtlarga moslashgan shira turlari va ularning agrobiotsenozda tutgan o'rni, entomofaglar bilan uzviy bog'langanligi, iqtisodiy zarar miqdorining aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o'rganilayotgan sharoitlarda danakli meva daraxtlarida tarqalgan shiralarning turlari, ularning biologik xususiyatlari, zararini aniqlanganligi hamda ularga qarshi istiqbolli turli vosita va usullarni qamragan kurash tizimi yaratilganligi va joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: Qoraqalpog'iston sharoitida danakli meva bog'laridan: o'rik, shaftoli, olxo'ri va gilos biotoplarida to'planib zarar keltiradigan shira turlarini aniqlash, bioekologik rivojlanishi, dinamikasi, zarar keltirish mezonini belgilash, agrotexnik, biologik va kimyoviy kurash usullari elementlarini ishlab chiqish va takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida:

«Shangalaqli miywe agashlarında shırınjalarga qarsı gúres ilajların alıp barıw» hamda «Qaraqalpaqstan agrobiocenozi toǵayzarlarında ushrasatuǵın zıyankeslerdiń, rawajlanıw dinamikası, bioekologiyası» nomli tavsiyanomalar tastıqlangan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2024-yil 3-apreldagi №01/013-1346/1-son ma'lumotnomasi). Ushbu tavsiyanomalar mazkur agroiklim sharoitida mavjud danakli meva bog'larida shiralarga qarshi kurash olib borishdagi asosiy qo'llanma sifatida keng foydalanilib kelinmoqda;

zarar keltiradigan o'rik-qamish shirasiga qarshi kimyoviy preparatlarni ishlatish bo'yicha Kegeyli tumani M.Mirzaev nomli bog'dorchilik, uzumchilik va mevachilik ITI QQ ITS tajriba xo'jaligi, «Baxtiyar Raxat» f/x 11,0 ga maydonda joriy etildi (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2024-yil 3-apreldagi №01/013-1346/1-son ma'lumotnomasi). Natijada tadbirning biologik samaradorligi 96,0-97,0%, xo'jalik samaradorligi 18,4-21,6 kg, iqtisodiy samaradorlik o'rikning gektaridan 18702,0-19596,0 va shaftolida 45045,0-47660,0 ming so'm qayd etilganligi aniqlangan;

biolaboratoriyada ko'paytirilgan oltinko'z entomofagi Chimboy tumani Qoraqalpog'iston DITI hamda «Reyimbay-Usen» f/x maydonlarida 27,0 gektarda joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2024-yil 3-apreldagi №01/013-1346/1-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'rik tuplaridan 10,7-18,9 kg, shaftolidan 12,7-21,2 kg hosil himoya qilib qolinib, tadbirning iqtisodiy samaradorligi 6211,0-18262,0 ming so'mni tashkil qilganligi isbotlangan;

shiralarga qarshi kimyoviy preparatlar Nukus tumani «Axmet Shax», «Rawaj Maxsimqala» f/x ning 19,0 ga maydonidagi o'rik, shaftoli daraxtlariga qo'llanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2024-yil 3-apreldagi №01/013-1346/1-son ma'lumotnomasi). Natijada, o'rik va shaftoli meva daraxti barglaridagi shiralar soni 97,4-98,6% kamaytirilib, joriy etilgan tadqiqotning iqtisodiy samaradorligi 19596,0-47660,0 ming so'm darajasida, ishlatilgan bir so'm 2,08-2,15 va 3,77-4,35 ming so'mga qoplanganligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Belgilab olingan rejalar asosida bajarilgan tadqiqotlar Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti tomonidan tashkillashtirilgan aprobatsiya komissiyasi a'zolari tomonidan ko'rib chiqilib, tahlil qilindi va ijobiy baholandi. Olingan natijalar 5 ta, jumladan, 4 ta Xalqaro va 2 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Ilmiy ish mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, jumladan, 5 ta maqola, 4 tasi respublika, 1 ta xorijiy jurnalda va 2 ta tavsiyanoma chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, oltita bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 120 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchlilik, ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, shuningdek, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning «**Meva bog'lari biotsenozi tarkibidagi shiralar va entomofag turlari rivoji, zararli turlariga qarshi kurash tadbirlarini tashkillashtirish**» deb nomlangan birinchi bobi adabiyotlar sharhiga bag'ishlangan bo'lib, mavzu bo'yicha so'nggi yillari chop etilgan mahalliy va xorijiy manbalar, internet ma'lumotlari hamda ushbu sohada faoliyat yuritayotgan olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari tahlil qilingan. Tadqiqotlar olib borilgan hudud sharoitida bajarilgan ishlar bilan taqqoslanib, natijalari bo'yicha olingan ma'lumotlar yuzasidan xulosalar chiqarilib, ishning maqsad va vazifalari belgilab olingan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot o'tkazilgan hududlar, obyektlar hamda ishlatilgan usullar**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot uslublari, olib borilgan hududning tuproq, agroiqlim sharoitlari tahlil qilingan. Mavzu bo'yicha belgilab olingan, meva bog'laridagi zararkunanda va entomofaglar turlari, rivojlanish bioekologiyasi, dinamikasi, fenologiyasi va qarshi kurash tadbirlarini

olib borishda entomologiya, o'simliklarni himoya qilish ilmda tan olingan uslublar asosida tadqiqotlar olib borildi. Danakli meva daraxtlari turlarini aniqlash, fazalarini va olib borilgan agrotexnik tadbirlarni belgilash, turlarida uchraydigan zararkunanda va entomofaglari turlari O.N.Korovin va boshq., Q.Seyfullaev va boshq.; zararkunanda va entomofaglarni – B.P.Adashkevich, K.S.Artoxin aniqlagichlari; shiralarning rivojlanish bioekologiyasi, dinamikasi – E.A.Pikushova, SH.T.Xo'jaev, M.A.Velodichev; iqtisodiy zarar mezonini – V.I.Tanskiy, V.T.Alexin uslublari yordamida aniqlandi. Shiralarga qarshi biologik usullarni ishlatish – X.R.Mirzalieva, X.Kimsanbaev va boshq.; agrotoksikologik tadqiqotlar – SH.T.Xo'jaev; tadbirlarning biologik samaradorligi K.A.Gar (Abbot formulasi); xo'jalik va iqtisodiy samaradorligi N.R.Goncharov va boshq., A.F.Chenkin usullaridan foydalanilib bajarildi. Laboratoriya, dala va ishlab chiqarish tajribalari: variantlarini joylashtirish, qaytariqlarni tanlash, olingan natijalarni matematik-statistik tahlil qilish B.A.Dospexov uslubi asosida bajarildi. Ma'lumotlarning «o'rtacha xatoligi» va variantlar orasidagi eng kichik farq (EKF) O'simliklarni himoya qilish ilmiy-tadqiqot institutining «Monitoring va axborot texnologiyalarini qo'llash bo'limi»da yaratilgan kompyuter dasturi asosida aniqlangan.

Tadqiqotlar o'tkazilgan Chimboy, Kegeyli, Nukus tumanlari agroiklimidagi o'rtacha havo harorati, nisbiy namligi hamda yog'ingarchilik me'yorlari yillar bo'yicha «Chimboy» meteostantsiyadan olingan ma'lumotlardan foydalanib, tahlil qilingan.

Dissertatsiya natijalarini ifoda qilishni boshlagan **«Qoraqalpog'istonda danakli meva bog'lari biotoplarida uchraydigan zararkunandalar va ularning biologik rivojlanish xususiyatlari»** deb nomlangan uchinchi bobning 3.1-§. va 3.2-§. bo'limlarida meva bog'lari turlari dalalaridagi biotsenozning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, biologik organizmlar rivojiga ta'sir etadigan asosiy omillardan hisoblangan havo harorati va nisbiy namligi o'zgarishlari, tashkillashtiriladigan agrotexnik tadbirlar aniqlangan. Kuzatuvlar natijasi asosida, mazkur agrobiotsenozda danakli meva daraxtlari turlari barpo etilgan meva bog'larida, kanal, ariq va yo'l bo'ylari hamda tomorqalarda uchrab, uchta biotopning o'rtachasi 17,5 dona danaklilarning 9,7 dona (55,6%) o'rik, 3,7 dona (21,4%) shaftoli, 2,4 dona (13,7%) olxo'ri va 1,6 dona (9,3%) gilosni tashkil qilishi hisobga olingan.

Ushbu danakli meva daraxtlari turlarida tarqalgan so'ruvchi zararkunandalardan o'rik-qamish shirasi, katta shaftoli tana shirasi, shaftoli shirasi, olxo'ri soxta qalqondori, Komstok qurti, shaftoli soxta qalqondori turlari tarqalib, rivojlanishi tufayli zarar keltirishini hisobga olib qarshi kurash tadbirlarini olib borish talab etilishi isbotlangan (1-jadval).

Dissertatsiyaning **«O'rik daraxtlarida rivojlanadigan shiralarning turlari»** deb nomlangan to'rtinchi bobi 4.1-§, 4.2-§ bo'limlarida Qoraqalpog'istonning shimoliy tumanlarida o'rik daraxtlarida tarqalgan shiralarning keltiradigan zarar



Danakli meva daraxtlarida uchraydigan so‘ruvchi zararkunanda va entomofaglarining turlari (*Chimboy, Kegeyli, Nukus tumanlari, 2021-2023 yy.*)


Zararkunanda va entomofag nomlari		Danakli meva daraxtlari turlarida uchrashi				
O‘zbekcha	Lotincha	o‘rik	shaf-toli	olxo‘ri	gilos	Olcha
Zararkunanda turlari						
Yashil shaftoli shirasi	<i>Myzodes persicae</i> Sulz.	+	+++	+	-	-
Katta shaftoli tana shirasi	<i>Pterochloroides persicae</i> Chol.	+	+++	+	+	+
O‘rik-qamish shirasi	<i>Hyalopteruspruni</i> Geoffr.	+++	+	++	+	+
Olxo‘ri – chertopolox shirasi	<i>Brachycaudus cardui</i> L.	++	-	+	-	-
Yashil olma shirasi	<i>Aphis pomi</i> Deg.	-	+	-	+	+
Shaftoli soxta qalqondori	<i>Parthenolecanium persicae</i> F.	-	+++	+	-	-
Olxo‘ri soxta qalqondori	<i>Sphaerolecanium prunastri</i> Fonsc.	+	++	+++	+	-
Komstok qurti	<i>Pseudococcus comstocki</i> Kuw.	+	++	-	+	+
O‘rgimchakkana	<i>Tetranychus urticae</i> Koch.	++	-	+++	+++	+
Entomofaglar						
Xon qizi	<i>Coccinella septempunctata</i> L.	+++	+++	++	++	++
Ikki nuqtali xon qizi	<i>Adalia bipunctata</i> L.	+	++	-	-	-
Besh nuqtali xon qizi	<i>Coccinella quinquepunctata</i> L.	-	+	+	-	-
14 nuqtali propileya	<i>Propylea quatuordecimpunctata</i> L.	-	+	-	-	-
O‘zgaruvchan adoniya	<i>Adonia variegata</i> Gz.	+	++	+	-	-
Oltinko‘z	<i>Chrysopa cornea</i> Steph.	+++	+++	+	+	+
Sirfid pashshasi	<i>Scaeva pyrastris</i> L.	++	++	+	+	-
Afidius kolemani	<i>Aphidius colemani</i> Vier	++	+++	+	-	-
Afidiid	<i>Lysiphlebus fritzmuelleri</i> Mask.	++	++	-	+	-

Izoh: —uchramaydi; +-kam; ++-o‘rtacha; +++-ko‘p sonda uchraydi.

mezoni bo'yicha dominant turlar o'rik-qamish shirasi ekanligi qayd qilingan. Zararkunanda mart oyi ikkinchi va uchinchi o'n kunliklarida havo harorati 5,8°C dan 9,7°C ko'tarilishi bilan qishlovdan chiqib, muddatni o'rik gullashi bilan taqqoslab belgilash mumkinligi aniqlangan.

Zararkunanda aprel va may oylari davomidagi havo haroratining 13,2-18,2°C dan 20,8-25,6°C gacha ko'tarilishi natijasida yoppasiga ko'payib, o'rik barglarida o'rtacha 321,2-51,3 donagacha etib, iyun oyidagi 28,2-28,9°C havo harorati yozgi tinim davriga kirishiga va sentyabr oyidagi 18,6-21,8°C 3,7-5,4 donagacha rivojlanib qishlovga ketishidagi qulay abiotik omillardan bo'lishi aniqlangan (1-rasm).





1-rasm. O'rik daraxtlarida shiralarning rivojlanish dinamikasi (Nukus, Kegeyli, Chimboy tumanlari, 2021-2023 yy.)

O'rik-qamish shirasi etuk zoti aprel oyi uchinchi o'n kunligida o'rtacha 21,0-25,8 kun davomida hayot kechirib o'rtacha 67,3 dona, may oyi birinchi o'n kunligida 19,0-28,3 kunda 74,4 dona, ikkinchi o'n kunligida 17,0-27,7 kunda 68,7 dona tirik avlodlar tug'ib ko'payishi kuzatilgan.

O'rik-qamish shirasi o'rikning bir bargda o'rtacha 3,8-9,5 dona rivojlanganda, bir mevaning vazni 2,4 grammga, 18,4-29,5 donasi 8,1 grammga, 45,1-59,8 donasi 11,8 grammga kamaytirib, sifatining keskin pasayishiga, keltirilgan zarar esa o'rik daraxtlaridan 13,0-23,0 kg gacha hosil nobud bo'lishiga olib kelishi tufayli, meva tuplari barglaridagi shiralar ko'payishni boshlagan barglar soni 8-10% tashkil qilib, avlodlari soni bitta bargda o'rtacha 4,0-9,0 donaga etishi iqtisodiy zarar mezoni sifatida qabul qilish tavsiya etilgan.

Dissertatsiyaning «**Shaftoli daraxtida rivojlanadigan shira turlari**» deb nomlangan beshinchi bobi 5.1-§, 5.2-§ bo'limlarida shaftoli daraxtlarida shaftoli shirasi va katta shaftoli tana shirasi asosiy tur hisoblanib, aprel oyi ikkinchi va uchinchi o'n kunliklarida shaftoli shirasi 9,4-13,2; 18,0-21,7 dona, katta shaftoli tana shirasi 3,8-4,7 dona; 8,0-11,4 donagacha, may oyining birinchi o'n kunligida 25,0-28,7 dona, 18,0-19,2 dona, ikkinchi o'n kunligida 22,4-31,1 dona, 24,3-29,3 dona va uchinchi o'n kunligida 10,3-12,4 dona, 21,7-39,8 donagacha rivojlanib, iyun oyining birinchi o'n kunligidagi 26,7-29,1 °C, nisbiy namligi esa 32-34% tashkil qilganligi tufayli yozgi tinim davriga kirib, sentyabr oyidagi soni 1,9-4,2 dona, katta shaftoli tana shirasi soni 1,6-6,7 donagacha darajasida faol rivojlanib, qishlovga kirganligi aniqlangan.


Mazkur agroiklim sharoiti aprel oyi uchinchi o'n kunligida shaftoli shirasi onalik zoti 13,0-21,0 kun hayot kechirib, bitta onalik 30,3-32,4 dona, may oyi birinchi o'n kunligida 11,6-20,6 kunda 28,3-30,1 dona, ikkinchi o'n kunligida 12,1-20,2 kunda 28,3-32,4 dona tirik avlodlarini tug'ib ko'payganligi hisobga olindi. Zararkunanda o'rtacha bitta bargda 2,3-4,9 donaga ko'payganda, barglar rangi sarg'ayishi va bujmayishi boshlanib, mevalar vazni 9,0 gramm, shiralar soni

8,9-11,9 donaga etganda, 26,3 grammga, 16,4-20,3 donaga etganda, barglar bujmayib, tushib qolganligi, pishish fazasiga etgan mevalarning vazni esa 41,8 grammgacha kamayib, sifati keskin pasayishi kuzatilganlikdan, shaftoli barglarida oʻrtacha 2,3-4,9 dona shaftoli shirasi avlodlari paydo boʻlishi iqtisodiy zarar mezoni sifatida tavsiya etilgan.

Dissertatsiyaning «**Danakli meva daraxtlarida shiralarga qarshi kurash tadbirlarini takomillashtirish**» deb nomlangan oltinchi bobi 6.1-6.4-§ boʻlimlarida olib borilgan tadqiqot natijalari asosida danakli meva bogʻlaridan oʻrik va shaftoli meva daraxtlarida paydo boʻlib zarar keltiradigan shiralarga qarshi kurash tadbirlari natijalari bayon etilgan.


Qoraqalpogʻiston sharoitida hosil berayotgan danakli meva daraxtlarida zararkunandalarga qarshi olib borish tavsiya etilgan agrotexnik kurash tadbirlar toʻla bajarilgan meva bogʻlarida uchragan oʻrik qamish-shirasi soni barglarda 0,5-0,8 dona, ishlar bajarilmagan maydonlardagi daraxtlar barglarida 6,8-14,6 donagacha, may oyi oxirida 36,3-49,2 donagacha, shaftoli shirasi soni esa 16,3 dona, katta shaftoli tana shirasi 8,3 dona va 15,2-22,9 dona, 23,1-33,6 donagacha koʻpayib katta zarar keltirganligi qayd etilib, agrotexnik tadbirlarning ahamiyati isbotlangan.

Danakli meva bogʻlari turlaridan oʻrik daraxtlarida rivojlanayotgan oʻrik-qamish shirasi soni bitta bargda oʻrtacha 15,4-23,2 donaga etganda biolaboratoriyalarda koʻpaytirilgan oltinkoʻz entomofagi gektariga 500-2000 dona (1:10-15 oltinkoʻz/shira nisbatda) hisobida tarqatilgandan soʻng 10-kuni biologik samaradorlik 38,5-64,5%, 30-kuni 68,5-86,8% ni tashkil qilib, shaftoli daraxtlari barglarida rivojlangan shaftoli shirasi soni bir bargda 10,6-15,1 donaga etganda tarqatilgan oltinkoʻzning biologik samaradorligi 10-kuni 44,8-60,8%, 30-kuni 66,2-83,0%, 1500-2000 donasi tarqatilganda esa 53,3-57,3% dan 82,2-86,8% gacha tashkil qilishi isbotlangan (2-rasm).



2-rasm. Shaftolida shaftoli shirasiga qarshi qoʻllanilgan oltinkoʻzning biologik samaradorligi (Chimboy tumani, 2021-2023 yy.)

Mazkur hudud sharoitida shiralar soni ko'payishi kuzatiladigan meva daraxtlarida zararkunandalarga qarshi ishlatiladigan kimyoviy preparatlarni ishlatish tadbirlari ishlab chiqilib, bir nechta preparatlarning qo'llash vaqti va me'yorlari ishlab chiqilgan va joriy etish uchun tavsiyalar berilgan (3-rasm).



3-rasm. O'rikda shiralarga qarshi sinovdagi insektitsid-afitsidlarning biologik samaradorligi (Dala tajribasi, MOP, 1000 l/ga, 7.V.2022 y.)

Tadqiqot natijalariga asosan meva daraxtlaridagi shiralarga qarshi biologik samaradorligi bo'yicha insektitsid-afitsidlardan Tayra, 48% em.k. – 0,07%, Kanvidor, 20% s.e.g. – 0,03%, Agrofos, 55% em.k. – 0,07% va Xektash Maestro, 5% em.k. – 0,05% istiqbolli deb topilib, daraxtlarni himoyalashda samarali qo'llanilmoqda. Preparatlarning turlarini o'rik barglarida o'rik-qamish shirasi turlari paydo bo'lishi bilan maxsus purkagichlar yordamida ishlatilgandan keyin kundagi biologik samaradorligi 83,1-96,5% dan 15-kunga kadar 97,5-100,0% gacha yetishi aniqlangan.

Mevali bog'lardagi daraxtlarni mavsum mobaynida shiralarning asosiy turlaridan himoya qilishda keltiriladigan zararining oldini olibgina qolmay, qo'shimcha hosil olish (hosilni saqlab qolish) hamda nazorat daraxtlarga nisbatan iqtisodiy samaradorlikka ega bo'lishdir. O'rik va shaftolida tarqalgan shiralarning asosiy turlariga qarshi olib borilgan kurash usullarining turlari va biologik samaradorligiga bog'liq bo'lgan hosilni himoya qilishdagi me'yori, bahosi asosiy omil sifatida o'rganib borildi. Meva bog'larida shiralarga qarshi ishlatilgan biologik kurash tadbirlari va o'rganilayotgan insektitsidlarning xo'jalik samaradorligi aniqlangan.

Natijada, o'rik-qamish shirasiga qarshi biolaboratoriyada ko'paytirilgan oltinko'z tarqatilib, maqbul muddatlarda shiralar soni kamaytirib borilgan daraxtlarining bir tupidan olingan hosilning 43,9-49,6 kg mevadani, 14,5 kg, shaftolining bir tupidan olingan 65,5-72,0 kg hosildan 11,0 kg hosil himoya qilib qolingani dalalardagi tadbirning iqtisodiy samaradorligi gektaridan 6211,0-18262,0 ming so'mni tashkil qilganligi hisobga olingan. Bu borada meva bog'lari biotopida tarqalgan entomofaglar ta'sirida alohida ahamiyatga ega omillardan ekanligi qayd

qilingan. Danakli meva bog'larida tarqalgan shiralar sonini kushandalaridan: 7 nuqtali xon qizi – *Coccinella septempunctata* L., 2 nuqtali xon qizi – *Adalia bipunctata* L., 14 nuqtali propileya – *Propylaea quatuordecimpunctata* L., o'zgaruvchan adoniya – *Adonia variegata* Gs., oltinko'z – *Chrysopa cornea* Steph., sirfid pashshasi – *Scaeva pyrastris* L., afidius kolemani – *Aphidius colemani* Vier., afidiid – *Lysiphlebus fritzmuelleri* Mask. turlari kamaytirib borishi aniqlangan.

Danakli meva daraxtlarida rivojlanib soni iqtisodiy zarar mezonidan ko'tarilishi kuzatilgan daraxtlarda tavsiya etilgan kimyoviy preparatlarni qo'llash tufayli hosilni himoya qilish samaradorligi aniqlandi. Olib borilgan tadbirlarning biologik samaradorligi xo'jalik va iqtisodiy samaradorlikni to'la ta'minlashi bajarilgan hisobotlar natijalari bilan isbotlangan (2-jadval).

2-jadval

Shaftoli meva daraxtlarida shaftoli shirasi va katta tana shirasiga qarshi ishlatilgan preparatlarning xo'jalik va iqtisodiy samaradorligi (2022 y.)

Ko'rsatkichlar	Nazorat (himoya- siz)	Sinalgan dorilar		
		Tayra 0,07%	Kanvidor 0,03%	Agrofos 0,07%
Biologik hosildorlik, s/ga	102,5	211,3	196,3	221,7
Saqlab qolingani hosil, s/ga	-	108,8	93,8	119,2
Bir gektarga sarflangan dori miqdori, l(kg)	-	1,7	0,7	1,7
Bir gektarga sarflangan dorining umumiy narxi, ming so'm/ga	-	620,0	390,0	980,0
Bir gektarni himoya qilishga ketgan xizmat va traktor haqi, ming so'm/ga	-	250,0	250,0	250,0
Himoya qilishga sarflangan umumiy xarajat, ming so'm/ga	-	870,0	640,0	1230,0
Qo'shimcha hosilni yig'ib-tashishga ketgan xarajat, ming so'm/ga	-	4170,0	3265,0	4520,0
Umumiy xarajat, ming so'm/ga	-	5040,0	3905,0	5750,0
Ishlab chiqarish xarajatlari, ming so'm/ga	7420,0	7420,0	7420,0	7420,0
Jami sarf, ming so'm/ga	7420,0	12 460,0	11 325,0	13 170,0
1 gektardan olingan hosilning narxi, ming so'm/ga	30 750,0	84 520,0	78 520,0	88 680,0
Shartli sof foyda yig'indisi, ming so'm/ga	-	72 060,0	67 195,0	75 510,0
Nazoratga nisbatan iqtisodiy samaradorlik, ming so'm/ga	-	41 310,0	36 445,0	44 760,0
Sarflangan 1 so'mning oqlanishi, marta	-	3,3	3,21	3,39
Himoya qilish usulining foydaliligi (rentabelligi), %	-	330	321	339

Tavsiya etilgan kimyoviy preparatlar maqbul sharoitlarda ishlatilganda danakli meva daraxtlaridan o'rikzorning har gektaridan 18702,0-19596,0 ming so'mlik, shaftolizordan esa 45045,0-47660,0 ming so'mlik iqtisodiy samara olingan. Shiralarga qarshi olib borilgan kurash tadbirlari uchun sarflangan har 1 so'm evaziga, 2,08-2,15 va 3,77-4,35 so'mlik qo'shimcha hosil olinib, tavsiya etilayotgan usulning rentabellik darajasi 208-215 va 377-435% ga teng bo'lishi aniqlangan.

Hudud agroiklim sharoitini hisobga olib danakli meva daraxtlariga zarar keltiradigan shiralarga qarshi olib boriladigan agrotexnik kurash chora-tadbirlaridan boshlanadigan, biologik va kimyoviy kurash tadbirlarini birgalikda tashkillashtirishning ilmiy asoslari ishlab chiqilgan. Ishlab chiqarishda joriy etilgan natijalarda biologik, xo'jalik va iqtisodiy samaradorligi isbotlangan.

XULOSALAR

1. Qoraqalpog'iston sharoitida danakli meva bog'larida tarqalgan shiralarning rivojlanishi uchun ijobiy ta'sir etadigan abiotik omillar mavjud. Bularga qishning iliq kelishi, bahor oylari boshlanishi bilan havo haroratining mo'tadil ravishda ko'tarilishi, yozgi tinim davriga kirishiga iyul va avgust oylarida, haroratning yuqori darajada (42,0-46,0 °C) bo'lishi hamda havo nisbiy namligining o'rtacha kunligi 33,0-35,0 % ga tushib ketib, odatdagidan 12-15% ga pasayib ketishi sababchi bo'ladi.

2. Respublikaning shimoliy hududlari sharoitlarida danakli meva daraxtlardan quyidagilari nisbiy darajada o'stiriladi: o'rik-o'rtacha 55,6%, shaftoli -21,4%, olxo'ri-13,7%, gilos va olcha -9,3%.

3. Shiralar hasharotlarning tengqanotlilar (*Homoptera*) turkumiga, shirinchalar (*Aphidineae*) kenja turkumiga xos bo'lib, ko'plab oila (*Aphididae*) va turlariga kiradiganlari uchraydi. Ko'pchilik turlari partenogenetik (tirik tug'ib) hamda oxirgi avlodida jinsiy urchish yo'li bilan ko'payadi. Shiralarning ko'chmanchi (statsiya almashtirib) hamda ko'chmanchilik qilmay (o'simlik almashtirmay bir joyda) yashaydigan turlari tarqalgan.

4. Qoraqalpog'iston sharoitida danakli meva daraxtlariga shiralarning quyidagi: **I. Ko'chmanchi** – o'rik-qamish shirasi (*Hyalopterus pruni* Geoffr.) – o'rik, shaftoli, olxo'ri, giloslarni zararlaydi; olxo'ri-chertopolox shirasi (*Brachycandus cardui* L.) – o'rik, olxo'ri; yashil shaftoli shirasi (*Myzodes persicae* Sulz.) – o'rik, shaftoli; **II. Ko'chmaydigan** – yashil olma shirasi (*Aphis pomi* Deg.) – o'rik, shaftoli; katta shaftoli tana shirasi (*Pterochloroides persicae* Chol.) – shaftoli, olcha, o'rik, gilosni zararlaydi.

5. Agrobiotsenozda shiralarning quyidagi kushandalari: koktsinellidlarning 10 dan ortiq turlari, ular orasida 7 nuqtaligi (*C. sempenpunctata* L.) dominantlik qiladi; oltinko'z (*Chrysopa carnea* Steph.) hamda afidiidlar (*Aphidius colemani* Vier va b.) va sirfid pashshalari (*Scaeva pyrastris* L.) keng tarqalgan.

6. O'rik daraxtlariga asosan, o'rik-qamish shirasi zarar yetkazadi. Bu ko'chmanchi tur bo'lib, mavsumda 15-20 ta bo'g'in beradi; qishlab chiqqan

tuxumlaridan bahorda lichinkalari paydo bo'lib, nufuzi: havo harorati, nisbiy namligi, kushandalarning zichligi va ozuqa manbayining etarligiga bog'liqdir. Shiraning iqtisodiy zararli miqdor mezoni (IZMM) sifatida quyidagi ko'rsatkichlar belgilandi: 15-20% novdalar zararlangan bo'lib, har 1 bargda o'rtacha 18-30 tadan ortiq zotlari mavjud bo'lsa.

7. Yashil, shaftoli yoki issiqxona shirasi-bir uyli hamda fakultativ ko'chmanchi, to'liq siklli va faqat partenogenez usulida tirik tug'ib rivojlanishi mumkin bo'lgan hasharotdir. U tuxum shaklida qishlab chiqib, mavsumda 25 tagacha avlod beradigan shaftoli va boshqa o'simliklarning ashaddiy zararkunandasi hisoblanadi. Zotlari o'rtacha 16,2 kun yashab, har biri 30 tagacha lichinka tug'ib ko'payadi.

8. Shaftoli daraxtlari shira zarariga eng bardoshsizlardan bo'lib, bahor faslida bularning eng oz miqdori ham (har 1 bargda o'rtacha 2,3-4,9 dona) shaftoli hosildorligiga iqtisodiy sezilarli zarar yetkazadi (har bir etilgan mevaning 9,0 gr vazni yo'qoladi). Oldini olish maqsadida barg yozish davrida shira paydo bo'lsa, qarshi kurash tashkil qilish kerak.

9. Danak mevali daraxtlarni shiralardan himoya qilish maqsadida oltinko'zni 1:10-15 nisbatda ishlatish mumkin. Bunda, kushandani I-II yosh lichinka (qurtlik) davrida ishlatish eng yuqori samara beradi (55-60%). Oltinko'zni yetuk zot yoki tuxumlik davrida tarqatish 30 kun mobaynida 30-40% samara berishi mumkin, shuning uchun bu shakllarini uning tabiatdagi populyatsiyasini boyitish maqsadida ishlatish lozim bo'ladi.

10. O'rik va shaftolini turli barg shiralardan himoya qilish uchun quyidagi 5 ta afitsid insektitsidlar andozadan yuqori qoniqarli biologik samara ko'rsatdi: Kanvidor – 0,03% eritma quyuqligida, Imido – 0,02%, Agro Splan – 0,03%, Killer Super – 0,015%, Tayra – 0,07%. Katta shaftoli tana shirasiga qarshi: Tayra – 0,07%, Xektash Maestro – 0,05%, Kanvidor – 0,03%, Agrofos-D – 0,07%.

11. Danakli meva daraxtlari shiralardan samarali himoya qilinsa, o'rikzorning har gektaridan 18702,0-19596,0 ming so'mlik, shaftolizordan esa 45045,0-47660,0 ming so'mlik iqtisodiy samara olish mumkin. Daraxtlarni himoya qilishga sarflangan har 1 so'm evaziga, mutanosib ravishda, 2,08-2,15 va 3,77-4,35 so'mlik qo'shimcha hosil olinadi. Usulning rentabellik darajasi 208-215 va 377-435% ga teng bo'ladi.

12. Danakli meva bog'larini shiralar zararidan himoya qilish yuqori va sifatli hosil etishtirish maqsadida:

agrotexnik kurash choralarin olib borishda, dalani begona o'tlar va o'simlik barglaridan tozalash, barcha meva daraxtlarga sifatli shakl berish, noyabr oyining ikkinchi dekadasiqasiga qadar tuproqni 20 sm chuqurlikda haydash, gektariga 1000-1500 m³ miqdorda yaxob suvini berish;

bahor oylarida shira tarqala boshlagan daraxtlarga oltinko'zning yetuk zotlari, tuxumi yoki ayniqsa I-II yosh lichinkalarini 1:10-15 nisbatda tarqatish, zararkunanda nufuzini qaytarib, maxsus himoya choralarini o'tkazishga ehtiyoj qoldirmaslik;

mevali daraxtlarni shiralardan faol himoya qilishga ehtiyoj paydo boʻlganida Kanvidor – 0,03%, Imido – 0,02%, Agro Splan – 0,03%, Killer Super – 0,015%, Tayra – 0,07% insektitsid-afitsidlarning turlaridan birini tanlab, qoʻyilgan talablarni toʻgʻri bajarib, ertalab va kechqurun havo harorati 24,0-25,0°C gacha boʻlganida ishlatish tavsiya etiladi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.05/30.12.2019.Qx.42.01 ПО
ПРИСВОЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНО-
ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ ИНСТИТУТЕ СЕЛЕКЦИИ,
СЕМЕНОВОДСТВА И АГРОТЕХНОЛОГИИ ВЫРАЩИВАНИЯ
ХЛОПКА**

**КАРАКАЛПАКСКИЙ ИНСТИТУТ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА И
АГРОТЕХНОЛОГИЙ**

ТОРЕНИЯЗОВ ТИЛЕУМУРАТ ЕЛМУРАТОВИЧ

**БИОЭКОЛОГИЯ РАЗВИТИЯ ТЛИ (*APHIDIDAE*) НА ПЛОДОВЫХ
КОСТОЧКОВЫХ И НАУЧНО ОБОСНОВАННЫЕ МЕРЫ БОРЬБЫ В
УСЛОВИЯХ КАРАКАЛПАКСТАНА**

06.01.09 – Защита растений

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫМ НАУКАМ**

Ташкент – 2024

Аннотация диссертации доктора философии (PhD) на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.psuyaiti.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz)

Ж.Х.Ахмедов
Председатель научного семинара
при научном совете по
присуждению учёных степеней,
доктор биологических наук,
профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В странах мира продукция, получаемая с плодовых садов считается основным источником обеспечивающим население питанием, и на сегодняшний день различные плодовые сады заложены на площади 39,5 млн гектаров, их основная часть приходится на такие страны, как Индия (10,7 млн га), Китай (6,4 млн га), Корея (1,6 млн га), Испания (1,5 млн га), Италия (1,1 млн га), Россия (0,84 млн га), США (0,65 млн га), а также Турция (0,17 млн га)¹. В этих странах количество урожая семечковых и косточковых плодовых садов, наряду с почвенными и климатическими условиями, подбором сортов и примененными агротехническими мероприятиями, зависит от вредителей, болезней и сорной растительности, считающихся биотическими факторами.

Как показали результаты исследований, проведенные рядом ведущих по развитию отрасли садоводства в мире научно-исследовательских организаций и центров, получаемый с плодовых садов урожай зависит от подбора видов и сортов, агротехнических мероприятий, а также организации на основе научных исследований мероприятий по борьбе против вредителей, являющихся основными вредными факторами, распространенными в условиях агробиоценоза региона. Доказано, что организация мероприятий в рекомендуемые сроки и нормах является основным фактором обеспечения качества и товарности плодов, получаемых от видов фруктовых садов. Поэтому, в качестве этого вида земледелия, важное значение имеет проведение научных исследований по полному обеспечению потребления непораженной, спелой и переработанной продукции, получаемой с плодовых садов.

Для развития данной отрасли в последние годы в Республике Узбекистан в агробиоценозах областей из косточковых плодовых деревьев возделываются такие виды, как абрикос (*Armeniaca vulgaris* Lam.), персик (*Persica vulgaris* Mill.), слива (*Prunus domestica* L.), вишня (*Cerasus vulgaris* Mill.), вишня птичья (*Prunus avium*) и черешня (*Cerasus avium* L.). В Указе Президента Республики Узбекистан № УП-5853 от 23 октября 2019 года «Об утверждении Стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы»² отмечено, что существует ряд проблем по посадке и размножению существующих и новых видов плодовых деревьев, а также, с учетом агроклиматических условий регионов, отмечены конкретные мероприятия по реформированию отрасли садоводства, разработке новых инновационных идей, технологий, разработке и внедрению научно-обоснованных мероприятий по защите уничтожаемой вредителями продукции.

Запланированные диссертационные исследования по повышению урожайности в агроклиматических условиях Каракалпакстана в

¹ <https://www.fao.org/common-pages/search/en/?q>

² Указ Президента Республики Узбекистан УП-5853 от 23-октября 2019-года «Об утверждении Стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы».

определенной степени служат выполнению задач, предусмотренных в Указе Президента Республики Узбекистан № УП-5388 от 29 марта 2018 года «О дополнительных мерах по ускоренному развитию плодоовощеводства в Республике Узбекистан» и Постановлении Президента Республики Узбекистан № ПП-4239 от 14 марта 2019 года «О мерах по развитию сельскохозяйственной кооперации в плодоовощной отрасли», а также других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере, с целью эффективного использования существующих в условиях региона возможностей.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное диссертационное исследование, предназначенное для реализации в агроклиматических условиях Каракалпакстана, выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики V. «Сельское хозяйство, биотехнология, экология и охрана окружающей среды».

Степень изученности проблемы. В мире были глубоко изучены видовой состав, биоэкологическое развитие, динамика, критерии вредоносности распространенных на семечковых и косточковых плодовых деревьях и виды вредителей, проведены научные исследования по разработке мер борьбы такими учеными, как B.N.Beirne, J.Boubatrin, P.Huemer, H.N.Comins, G.Friese, Ch.E.Taylor, N.Nane, J.Kokot, V.Voineac, A.C.Аветян, В.П.Васильев, И.В.Лившиц, А.Данилевский и др. Проводятся работы по адаптации к биотопу видов вредителей в зависимости от типов плодовых садов, мерам борьбы против них в соответствии с биоэкологией развития, получены широкомасштабные результаты, дающие теоретическую и практическую эффективность, а также даны рекомендации по внедрению в производство.

На основе результатов анализа ученых В.Яхонтов, Р.Олимжонов, Б.Адашкевич, У.Набиев, А.Акбутаев, Н.Пашенко, Ш.Ходжаев, Б.Сулайманов, Т.Атамирзаева, Х.Мирзалиева, А.Сагдуллаев, С.Мирзаева, А.Ходжаев, Д.Обиджонов, А.Юсупов, Х.Шукуров и др., проводивших научные исследования для научного обоснования возникающих в данном биотопе проблем были изучены биоэкология, динамика развития яблонной плодовой тли, щитовок, видов тли, даны рекомендации производству по применению химических препаратов с целью предотвращения вреда, обеспечивающих ожидаемую биологическую, хозяйственно-экономическую, экологическую эффективность.

